



**O‘QITUVCHI KASBIY-PEDAGOGIK MAHORATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

Xushboqov Erkin Suyunovich

Yaxshiboyeva Oytilla Allaberdi qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Anotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda zamonaviy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik mahoratning mohiyati, uning tarkibiy qismlari, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda metodologik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, mentorlik va ustoz-shogird an’anasining integratsiyasi orqali pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Аннотация

В статье научно анализируются теоретические основы и современные подходы к развитию профессионально-педагогического мастерства учителя. Раскрывается сущность педагогического мастерства, его структурные компоненты, а также значение методологических подходов в совершенствовании профессиональных компетенций педагога. Особое внимание уделяется интеграции интерактивных методов обучения, цифровых технологий, наставничества и традиции «учитель–ученик» как эффективных средств развития педагогического мастерства.

Anotation

This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations and modern approaches to the development of teachers’ professional and pedagogical mastery. The essence of pedagogical mastery, its structural components, and the significance of methodological approaches in improving teachers’ professional competencies are explored. Particular emphasis is placed on the integration of interactive teaching methods, digital technologies, mentoring, and the teacher–student tradition as effective means of enhancing pedagogical mastery.

Kalit so‘zlari: Pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, nazariy asoslar, metodologik yondashuvlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, mentorlik, ustoz-shogird an’anasi

**KIRISH.**

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi bevosita pedagogik faoliyat samaradorligi va o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liqdir. Zero, o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy-pedagogik kompetensiyalari hamda metodologik tayyorgarligi ta'lim sifati va samaradorligining eng muhim mezonlaridan biridir. Shu sababli, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirish, ularning pedagogik mahoratini yuksaltirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *“Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hal qiluvchi omili bu — ilmi, yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'qituvchi va murabbiylarni tarbiyalashdir”*. Shu maqsadda qabul qilingan qator farmon va qarorlar pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy asoslarini mustahkamlab, zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga keng tatbiq etish imkonini bermoqda. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, o'qituvchi maqomini oshirish masalalari alohida belgilab qo'yildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentabrdagi PF-6108-sonli “O'qituvchi va murabbiylarning maqomini oshirish to'g'risida”gi Farmoni ushbu jarayonning konseptual asoslarini belgilab berdi. Mazkur farmonda o'qituvchining ijtimoiy nufuzi, kasbiy obro'si va pedagogik mahoratini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Farmonga muvofiq, pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi, amaliyotga innovatsion yondashuvlar, masofaviy ta'lim texnologiyalari va zamonaviy metodik qo'llanmalar joriy qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli “Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorida o'qituvchilar faoliyatida interfaol metodlardan foydalanish, raqamli pedagogika elementlarini joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi. Ushbu hujjatlar o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishda nazariy asoslarni yaratish, metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish uchun huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Keng qamrovli islohotlar natijasida o'qituvchilar uchun yangi avlod darsliklari va metodik qo'llanmalar yaratildi, zamonaviy malaka oshirish markazlari tashkil etildi, xorijiy tajribani o'rganish imkoniyatlari kengaydi. Xususan, ta'lim sifati



Learning and Sustainable Innovation

baholashning milliy tizimi joriy qilinishi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablarning xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilishi ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishda ustoz-shogird an'anasini zamonaviy mentorlik tizimi bilan uyg'unlashtirish, interfaol usullardan samarali foydalanish, o'quvchi va talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan ham pedagogik mahoratni rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy-metodologik jihatdan, balki amaliy nuqtayi nazardan ham chuqur tadqiq etilishi, o'qituvchining professional kompetensiyalarini doimiy oshirishning mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun ta'lim tizimining asosiy talablari sirasiga kiradi.

O'qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish masalasi davlat huquqiy hujjatlari bilan mustahkamlangan, zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilgan va amaliyotda samarali mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etilayotgan ilmiy-nazariy jarayon sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda[9].

O'qituvchi kasbiy-pedagogik mahorati deganda nafaqat uning fan bo'yicha bilimlari, balki o'z bilimlarini samarali tarzda yetkazish, o'quvchilar bilan to'g'ri psixologik muloqot o'rnatish, ta'lim jarayonini interfaol va ijodiy tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Bu mahoratning shakllanishida nazariy bilimlar, metodologik yondashuvlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unlashishi muhimdir. O'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy tarkibiy qismlariga didaktik kompetensiya, kommunikativ mahorat, psixologik sezgirlik, metodik yangiliklarni joriy eta olish, tarbiyaviy ta'sirchanlik hamda o'z ustida ishlash madaniyati kiradi. Shunday ekan, pedagogik mahoratning nazariy asoslari pedagogikaning fundamental tamoyillari bilan bog'liq bo'lib, ular uzluksizlik, tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik va innovatsion yondashuvlarni o'zida mujassam etadi[10].

Nazariy-metodologik jihatdan qaralganda, pedagogik mahoratni rivojlantirish uchun zamonaviy ta'lim paradigmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, konstruktivistik yondashuv o'quvchini bilim olish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko'radi, bu esa o'qituvchidan bilim beruvchidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va jarayonni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishni talab qiladi. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan ta'lim konsepsiyasi o'qituvchidan nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Masalan, "klaster", "aqliy hujum", "munozara", "rol o'ynash" kabi metodlar dars jarayonida samarali qo'llanganda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi, o'qituvchining pedagogik



Learning and Sustainable Innovation

mahorati esa yangi bosqichga ko'tariladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratni rivojlantirishda mentorlik va ustoz-shogird an'anasining ahamiyati beqiyosdir. Masalan, ko'plab ta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilar tajribali ustozlarga biriktiriladi va ular amaliy dars jarayonida kuzatish, maslahat olish, dars tahlili qilish orqali o'z faoliyatini takomillashtiradi. Bu jarayon o'qituvchining nafaqat metodik mahoratini, balki psixologik va kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida ham mentorlik tizimi keng qo'llanilib, o'qituvchi kasbiy kompetensiyalarini oshirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonda ham bu tizim milliy an'analarimizdagi ustoz-shogirdlik maktabi bilan uyg'unlashgan holda joriy etilayotgani pedagogik faoliyat sifatini oshirishga xizmat qilmoqda[8].

Zamonaviy yondashuvlar orasida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish alohida o'rin tutadi. Masalan, interaktiv elektron darsliklardan foydalanish, onlayn platformalar orqali o'quv materiallarini yetkazish, masofaviy ta'lim tizimida turli interfaol topshiriqlarni qo'llash o'qituvchining kasbiy mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi. Pandemiya davrida masofaviy ta'lim tajribasi shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan pedagoglar o'quvchilarning bilim olish jarayonini uzluksiz davom ettirishda yuqori natijalar ko'rsatdilar. Bu esa o'qituvchining metodologik yondashuvlari qanchalik zamon bilan hamnafas bo'lishi kerakligini yana bir bor tasdiqladi[11].

Pedagogik mahoratning rivojlanishida shaxsiy o'zini rivojlantirish va refleksiya ham muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib borishi, muvaffaqiyat va kamchiliklarini aniqlashi, ilg'or tajribalarni o'rganishi, ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalardan foydalanishi kerak. Masalan, darsdan keyingi refleksiya jarayonida o'qituvchi qanday metod samarali bo'lganini, qaysi usullar o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaganini tahlil qilsa, keyingi mashg'ulotlarni yanada mukammal tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu orqali o'qituvchi o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi va kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib boradi. Kasbiy-pedagogik mahoratning amaliy asoslari sifatida o'qituvchi faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasini qo'llashni keltirish mumkin. Masalan, o'quvchilarning qobiliyatiga qarab differensial topshiriqlar berish, qiziqishlariga mos loyiha ishlari tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga undash pedagogning kasbiy mahoratini namoyon etadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuv sifatida STEAM-ta'lim elementlaridan foydalanish ham muhimdir. Masalan, tabiiy fanlarni o'qitishda texnologiya va muhandislik bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish orqali o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish mumkin, bu esa



o'qituvchidan yuqori metodik va tashkiliy mahoratni talab qiladi. Shu tarzda, o'qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish nazariy asoslarda davlat siyosati va metodologik konsepsiyalarga tayangan holda, amaliyotda esa interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, mentorlik va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali samarali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon o'zining murakkabligi bilan birga, uzluksiz izlanish va yangilanishni talab qiladigan dinamik tizimdir[7].

O'qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda nazariy asoslar va zamonaviy yondashuvlarning uyg'unlashuvi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifati davlatning intellektual salohiyati, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va madaniy yuksalishi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, pedagog shaxsining kasbiy mahorati strategik omil sifatida qaralmoqda. Shu bois, o'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur bilishi, balki ta'lim jarayonida zamonaviy metodologiyalarni qo'llay olishi, raqamli texnologiyalar bilan samarali ishlashi, shuningdek, o'quvchilar bilan shaxsiy muloqotni yuqori saviyada tashkil etishi talab etiladi. Nazariy-metodologik jihatdan qaralganda, kasbiy-pedagogik mahorat uch asosiy komponentga tayanadi: ilmiy-nazariy bilimlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati va shaxsiy-ijodiy yondashuv. Bu uchlik o'qituvchini nafaqat o'z sohasining mutaxassisi, balki tarbiyachi, psixolog, kommunikator va innovator sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, zamonaviy ta'lim jarayonida konstruktivizm nazariyasiga asoslangan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda, bunda o'qituvchi bilimni tayyor shaklda beruvchi emas, balki o'quvchini mustaqil izlanishga, mantiqiy xulosa chiqarishga va kreativ fikrlashga yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahorati o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda, ijodiy yondashuvni rivojlantirishda va hayotiy muammolarni hal qilishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Amaliy misollarga murojaat qilsak, ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etuvchi eng yorqin ko'rsatkichlardan biridir. Masalan, "Aqliy hujum", "Baliq skeleti" yoki "Debat" metodlari o'quvchilarni erkin fikrlash, dalillash va muloqotga kirishishga undaydi[12].

Shu jarayonda o'qituvchi nafaqat darsni samarali tashkil etadi, balki pedagogik psixologiyaga oid bilimlaridan foydalanib, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashadi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'limda mentorlik tizimi, ya'ni tajribali ustozlarning yosh pedagoglarga amaliy yordam ko'rsatishi, ularni kasbiy faoliyatga moslashtirishi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon ustoz-shogird an'analarning zamonaviy shaklda qayta tiklanishi sifatida qaraladi. Masalan, maktab yoki oliy ta'lim muassasasida yangi ish boshlagan



Learning and Sustainable Innovation

pedagogga tajribali o'qituvchi mentor sifatida biriktiriladi va u nafaqat metodik yordam beradi, balki dars jarayonida yuzaga keladigan psixologik, tashkiliy va kommunikativ muammolarni hal etishda ham yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Shu orqali yosh pedagogning kasbiy mahorati tezroq shakllanadi, u o'zining ijodiy potensialini kengroq namoyon etish imkoniga ega bo'ladi[13].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar davrida o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham alohida o'rin tutadi. Masalan, elektron ta'lim platformalari, onlayn darsliklar, interaktiv testlar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim dasturlari o'qituvchiga nafaqat dars jarayonini boyitish, balki o'quvchilarning bilimni individual tarzda baholash imkoniyatini beradi. Shu o'rinda, zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchilarni motivatsiyalovchi va ta'limiy muhitni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tajribaga murojaat qilganda ham, rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgani, muntazam trening va seminarlar o'tkazilayotgani kuzatiladi. Bu tajribalar o'zbek ta'lim tizimiga ham singdirilib, o'qituvchilarning malaka oshirish markazlarida muntazam faoliyat olib borilmoqda.

Shu tarzda, o'qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarda ma'naviy barkamollikni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, ijodiy fikrlashni va raqobatbardoshlikni shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Shu bois, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyat taraqqiyotida ham strategik vazifa sifatida qaralishi zarur[14].

XULOSA

O'qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishning nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlari ta'lim tizimining sifat va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida pedagogdan nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv, tanqidiy tahlil va innovatsion qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantira olishi talab etiladi. Shu sababli pedagogik mahoratni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, qonunlar, farmon va qarorlar orqali o'qituvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, malakasini oshirish va uzluksiz ta'lim jarayoniga jalb etish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy ta'limda konstruktiv yondashuv, interfaol metodlar, mentorlik tizimi va



ustoz-shogird an'anasining qayta tiklanishi o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchiga o'quvchilarning bilim olish jarayonini individuallashtirish va samarali boshqarishga imkon beradi. Demak, o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini yuksaltirish, balki millatning intellektual salohiyatini oshirish va jamiyat taraqqiyotini jadallashtirishning ham kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 460 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4947-son qaror. 2017-yil 7-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2021.
6. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: Ma'naviyat, 1992. – 192 b.
7. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
8. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
10. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G 'AZZOLIY ASARLARIDA "YOLG 'ON SO 'ZLASH VA YOLG 'ON QASAM ICHISH" YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
11. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN



FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.

12. Ismoilova Durдона G'ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O'RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269

13. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.

14. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.